

## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 06 | pp. 135-142 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### O'ZBEKISTONNING BARQAROR IQTISODIYOTGA O'TISHIDA YER RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH ISTIQBOLLARI



**O'ng'arov Hasan G'ayrat o'g'li**  
O'zbekiston Milliy Universiteti  
Mustaqil izlanuvchisi (Phd.)

**Annotatsiya.** “O'zbekistonning barqaror iqtisodiy rivojlanishga o'tish sharoitida yer resurslaridan samarali foydalanish muammolari” yer resurslarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati va ulardan oqilona foydalanish chora-tadbirlarini va strategiyasi ishlab chiqish zarurligi bilan izohlanadi. Iqlim o'zgarishi va tuproq degradatsiyasi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi va suv resurslarining tanqisligi kabi boshqa omillar yerdan barqaror foydalanish va tabiiy ekotizimlarni saqlash uchun yangi yondashuvlarni talab qiladi. Bu muammolarni hal etishda xalqaro hamkorlik, boshqa davlatlar bilan tajriba almashish ham muhim jihatlardandir.

**Kalit so'zlar:** yer resurslaridan samarali foydalanish muammolari, barqaror iqtisodiyotga o'tish, yer resurslari, iqtisodiy rivojlanish, oqilona foydalanish, tuproq degradatsiyasi, tabiiy ekotizimlarni saqlash, xalqaro hamkorlik, strategiyalar, chora-tadbirlar, iqlim o'zgarishi, suv resurslari, yerdan barqaror foydalanish.

**Аннотация:** «Проблемы эффективного использования земельных ресурсов в условиях перехода к устойчивому экономическому развитию Узбекистана» объясняны значением земельных ресурсов в экономическом развитии страны и необходимостью разработки мер и стратегии их рационального использования. Изменение климата и другие факторы, такие как деградация почв, потеря биоразнообразия и нехватка воды, требуют новых подходов к устойчивому землепользованию и сохранению природных экосистем. Международное сотрудничество и обмен опытом с другими странами также важны в решении этих проблем.

**Ключевые слова:** проблемы эффективного использования земельных ресурсов, переход к устойчивой экономике, земельные ресурсы, экономическое развитие, рациональное использование, деградация почв, сохранение природных экосистем, международное сотрудничество, стратегии, меры, изменение климата, водные ресурсы, устойчивое землепользование.

**Kirish (Introduction).** Zamonaviy dunyoda barqaror rivojlanishga o'tish muammosi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Bu jamiyat rivojlanishining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash zarurati bilan bog'liq. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston va uning ekologik holati og'ir bo'lgan hududlari, xususan Sirdaryo viloyati ham bundan mustasno emas. Shu nuqtai nazardan mintaqaning yer va suv resurslaridan

foydalanish samaradorligini oshirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston suv resurslari cheklangan mamlakat bo'lib bu borada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining axborot xizmati xabariga ko'ra, bugungi kunda mamlakatda foydalanilayotgan suvning qariyb 20 foizi respublika hududida shakllanib, qolgan 80 foizi transchegaraviy daryolar – Amudaryo va Sirdaryodan olinadi. Mamlakatda bir yilda o'rtacha 55-56 milliard kub metr hajmida suv ishlatalib, suv resurslarining asosiy qismi yoki 85 foizidan ortig'i qishloq xo'jaligida sug'orish ishlariga sarflanadi. Qishloq xo'jaligida foydalanadigan suvning asosiy qismi respublika hududiga qo'shni davlatlar orqali kirib keladi. sug'orish va ichish uchun suv resurslarining yetishmasligi muommosi og'irlashmoqda. Bundan tashqari, tuproq sifatining pasayishi va iqlim o'zgarishi mavjud bo'lib, bu muammoni yanada dolzarb qiladi. BMTning transchegaraviy transchegaraviy suvlardan foydalanish to'g'risidagi Konvensiyasi ("Suv konvensiyasi" - transchegaraviy suv oqimlari va xalqaro ko'llarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risidagi konvensiya. 1992-yilda Xelsinkida qabul qilingan va 1996-yildan kuchga kirgan) ga binoan iqlim o'zgarishi va suv resurslarining yetishmasligi kuchayib borayotgan bir paytda, suv resurslarini birgalikda tartibga solish va ularni mamlakatlar o'rtasida taqsimlash zarur. Shunday qilib, ushbu tadqiqot mavzusi muhim va dolzarbdir, chunki u barqaror rivojlanishga o'tish sharoitida O'zbekiston yer resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash va ekologik vaziyatni yaxshilash va mamlakatning uzoq muddatli istiqbolda barqaror rivojlanishini ta'minlash strategiyasini aniqlash imkonini beradi.

**Metodologiya (Methodology).** Hozirgi vaqtida mamlakatimizning ko'plab hududlarida yerdan samarasiz foydalanishlik chirindi miqdorining kamayishi, sho'rланish, tuproq va shamol eroziyasini keltirib chiqarmoqda. Yerdan foydalanishda kamchiliklarga yo'l qo'yilishi, bundan tashqari iqtisodiy dasturlarning to'liq emasligi, yer masalalari bo'yicha o'ziga xos huquqiy bazaning yo'qligi, yerdan foydalanuvchilarning tarkibi, yerga egalik va xo'jalik yuritish shakllarining o'zgarishi masalaning dolzarbligini oshirmoqda.

**Tahlil va natijalar.** Mamlakatimizda jami yerlar 44, 9 mln gettarni tashkil etib, yerlardan foydalanish maqsadi va tartibiga ko'ra 8 ta toifaga bo'linadi (jadvalga qarang), jumladan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar asosiy ahamiyatga ega bo'lgan yerlardan hisoblanadi.


### 1-jadval.

Yer toifalari	1990 yil 01.01. holatiga (ming ga)	%	2023 yil 01.01. holatiga (ming ga)	%	Farqi, +,- (ming ga)
Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar	33167,8	72,76	26232,3	58,44	-6935,5
Aholi punktlarining yerlari	197,2	0,43	225,8	0,5	28,6
Sanoat, transport, aloqa va mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan	1821,2	4	767,7	1,71	-1053,5

yerlar						
Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar	13,9	0,03	3222,7	7,18	3208,8	
Tarixiy madaniy ahamiyatga molik yerlar			14,8	0,03	14,8	
O'rmon fondi yerlari	2507,5	5,5	11738,1	26,15	9230,6	
Suv fondi yerlari	618,8	1,36	827,2	1,84	208,4	
Zaxira yerlar	7258,6	15,92	1863,8	4,15	-5394,8	
<b>Jami yerlar</b>	<b>45585</b>	<b>100</b>	<b>44892,4</b>	<b>100</b>	<b>-692,6</b>	

### O'zbekiston Respublikasi yer fondining toifalari bo'yicha tarkibi (2023-yil 1 yanvar holatiga).<sup>1</sup>

Yerdan oqilona foydalanish masalasi barqaror rivojlanishni ta'minlashning asosiy omili hisoblanadi. Rivojlangan davlatlarda 1 metr kub suv bilan 4-6 AQSh dollarlik mahsulot yetishtirilayotgan bo'lsa, respublikamizda bu ko'rsatkich 0,15 AQSh dollarini tashkil etmoqda<sup>2</sup>. Yer islohotining asosiy maqsadi – samarali mulkdor va tegishli xo'jalik mexanizmini shakllantirish orqali qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositalaridan samarali foydalanish va yer unumdorligini oshirishdan iborat. Muammo yer resurslaridan foydalanishni to'g'ridan-to'g'ri boshqarish va iqtisodiy tartibga solish o'rtaсидаги eng samarali nisbatlarni tanlash va barqaror takror ishlab chiqarish uchun qulay muhit yaratishdan iborat.



**1-rasm. O'zbekiston Respublikasi yer fondining toifalari bo'yicha tarkibi dinamikasi.**

O'zbekistonda 1990-yilda qishloq xo'jaligi yerlari jami yer fondining qariyb 73 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 58 foizga tushib qoldi. Sanoat, transport, aloqa va mudofaaga mo'ljallangan yerlar hamda zaxira yerlarning ham ulushi

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi yer fondi(2023 yil 1 yanvar holatiga)/.O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya Vazirligi huzuridagi kadastr agentligining davlat kadastrlari palasati. Toshkent – 2023.13 b.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi PF-5742-son [Farmoniga](#) 1-ilova.

mos ravishda 2 foiz va 12 foizga qisqardi. Aholi punktlari, tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar va suv fondi yerlari 33 yil davomida umumiy mamlakat yer fondi miqyosida juda kichik miqdorga oshganini ko'rsak, o'rmon fondi yerlari 5 foizdan 26 foiz (qariyb 21 foiz)ga, tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashshtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar 0,03 foizdan 7 foizgacha ko'paydi.(1-jadval)

O'zbekistonda irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini amalga oshirish yirik kapital qo'yilmalar talab etishi, ushbu maqsadlar uchun yo'naltiriladigan budjet mablag'lari hajmining cheklanganligi, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni va davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida jalg qilish masalasiga e'tibor qaratilmayotganligi oqibatida qishloq xo'jaligi yerlarining foydalanishdan chiqib ketishi, shuningdek hududlarning resurs va ishlab chiqarish salohiyatidan nooqilona foydalanish kabi holatlar yuzaga kelmoqda, natijada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va tarmoq eksport salohiyatini oshishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Hududda barqaror rivojlanish va yer resurslaridan samarali foydalanish bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Bir tomondan, barqaror rivojlanish kelajak avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirish qobiliyatini buzmasdan, hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirish uchun tabiiy resurslardan, shu jumladan yerdan muvozanatli foydalanishni ta'minlashni o'z ichiga oladi. Bu biologik xilma-xillikni saqlash, tuproq degradatsiyasining oldini olish, atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. Boshqa tomondan, yer resurslaridan samarali foydalanish barqaror rivojlanishga yordam beradi, chunki u yer resurslaridan oqilona foydalanish, ularning sifatini saqlab qolish va salbiy ekologik oqibatlarning oldini olish imkonini beradi. Bu yer tuzish va yerdan foydalanishni optimallashtirish, qishloq xo'jaligiga ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, degradatsiyaga uchragan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash kabi tadbirlarni o'z ichiga olishi mumkin.

O'zbekistonni yer resurslaridan samarali foydalanish asosida barqaror rivojlantirish davlat organlari, tadbirkorlik sohasi va jamoatchilikning kompleks yondashuvini va birgalikdagi sa'y-harakatlarini talab qiladigan asosiy vazifadir. Maqsadga erishish uchun yer resurslarining hozirgi holatini tahlil qilish, yerlardan joriy foydalanishning kompleks tahlilini o'tkazish, ularning salohiyati va zaif tomonlarini baholash, rivojlantirish va muhofaza qilishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash zarur. Demak, yer resurslaridan barqaror rivojlanish va samarali foydalanish jamiyatning uzoq muddatli farovonligini ta'minlash, tabiiy resurslarni asrab-avaylash va salbiy ekologik oqibatlarning oldini olishga qaratilgan o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi jarayonlardir.

Respublika viloyatlari bo'yicha yer maydonlarining taqsimlanishi tahlili shuni ko'rsatadiki, 26232,3 ming getktarning katta qismi Qoraqalpog'iston Respublikasi va Navoiy viloyatiga, eng kami esa Sirdaryo va Andijon viloyatlariga to'g'ri keladi. Lekin shundan ekin ekiladigan yerlarning kattaligi bo'yicha Qashqadaryo viloyati (670 ming ga) va Jizzax viloyati (501 ming ga)ning ulushi katta. Ko'p yillik daraxtzorlar Samarqand viloyatida 68,1 ming getkar, Toshkent viloyatida 52,1 ming getktarni tashkil etsa, Sirdaryo viloyatida 7,7 ming getkar, Qoraqalpog'iston Respublikasida 7,8 ming gettar maydonni egallaydi (2-jadval).

Fuqarolarga berilgan tomorqa maydonlariga keladigan bo'lsak, hozirda fuqarolar oldida daromadlarini oshirish maqsadida ulardan samarali foydalanishdek dolzarb vazifa turibdi. Tomorqa yerlar bilan Samarqand, Qashqadaryo va Farg'onan viloyatlari eng ko'p

ta'minlangan bo'lib, pichanzorlar maydoni bo'yicha esa Navoiy va Qoraqalpog'iston Respublikalari yetakchilik qiladi.

## 2-jadval.

T / r	Hududlar nomi	Umumi y yer maydoni (ming ga)	Ekin yerlar (ming ga)	Ko'p yillik daraxt-zorlar (ming ga)	Bo'z yerlar (ming ga)	Pichan-zorlar va yaylov-lar (ming ga)	Qishloq xo'jalik yer turlari maydo-ni (ming ga)	Umumiy may-donga nisbata n solish-tirma vazni (%da)
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	6242,6	414,9	7,8	12,5	4306,5	4741,7	76,0
2.	Andijon viloyati	360,8	198,8	30,6	2,2	15,6	247,2	68,5
3.	Buxoro viloyati	3440,7	199,6	20,6	6,6	2354,7	2581,5	75,0
4.	Jizzax viloyati	1374,2	501,0	39,7	11,2	560,3	1112,2	80,9
5.	Qashqadaryo viloyati	2331,0	670,8	38,2	20,5	1223,6	1953,1	83,8
6.	Navoiy viloyati	7067,1	119,2	9,8	6,7	6547,8	6683,5	94,6
7.	Namangan viloyati	488,9	182,7	46,6	2,3	44,0	275,6	56,4
8.	Samarqand viloyati	1474,7	420,5	68,1	5,2	706,4	1200,2	81,4
9.	Surxondaryo viloyati	1360,9	276,0	33,1	0,3	693,0	1002,4	73,7
10.	Sirdaryo viloyati	371,3	246,4	7,7	9,6	18,3	282,0	75,9
11.	Toshkent viloyati	748,4	317,3	52,1	0,7	192,8	562,9	75,2
12.	Farg'ona viloyati	529,5	241,3	53,6	0,0	5,0	299,9	56,6
13.	Xorazm viloyati	438,1	202,9	12,8	3,7	41,6	261,0	59,6
14.	Toshkent shahri	4,1	2,3	0,5	0,0	0,0	2,8	68,3

	Jami	26232,3	3993,7	421,2	81,5	16709, 6	21206, 0	80,8
--	------	---------	--------	-------	------	-------------	-------------	------

**Ma'muriy hududiy birliklar kesimida foydalaniladigan yerlarning umumiy maydoni (2023-yil ming. ga).<sup>3</sup>**

Mamlakatda suv resurslari mavjudligini baholash qiyin bo'lishi mumkin, chunki u ko'plab omillarga bog'liq masalan, yog'ingarchilik, suv sifati, suv manbalarining mavjudligi va aholi uchun foydalanish imkoniyati. Yer resurslaridan samarali foydalanish sharoitida suv resurslarining mavjudligi ulardan qishloq xo'jaligi, sanoat va maishiy ehtiyojlar uchun foydalanish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bugungi kunda mamlakatda foydalaniladigan suvning qariyb 20 foizi respublika hududida shakllanib, qolgan 80 foizi transchegaraviy daryolar – Amudaryo va Sirdaryodan olinadi. Mamlakatda bir yilda o'rtacha 44-48 milliard kub metr suv ishlatalib, suv resurslarining asosiy qismi yoki 85 foizdan ortig'i qishloq xo'jaligida sug'orish maqsadlariga sarflanadi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, hozirgi vaqtida 3 million 200 ming hektar yerga 46 milliard kub metr suv sarflanib, uning 60 foizi ekinlarga yetib boryapti. Jami 180 ming kilometr sug'orish tarmoqlarining 23 foizi beton qoplamali bo'lib, ular ham 30-35 yildan buyon deyarli yangilanmagan. Respublikada 2020 – 2030-yillarda aholini va iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini suv bilan barqaror ta'minlash, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv xo'jaligiga bozor tamoyillari va mexanizmlarini hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, suv xo'jaligi obyektlarining ishonchli ishlashini ta'minlash hamda yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida prezident farmoni imzolandi.

Masalan, Respublikamizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida suv resurslaridan samarali foydalanish va yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Bu chora tadbirlar ma'lum muddat o'tgach, o'zining ijobjiy samarasini bermoqda. So'nggi uch yil mobaynida irrigatsiyani rivojlantirish va sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturlari doirasida Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida 170,4 km irrigatsiya tizimlari kanallari, 145,2 km lotok tarmoqlari, 33 ta gidrotexnik inshootlar, 734 km kollektor-drenaj tarmoqlari hamda boshqa suv xo'jaligi obyektlari qurildi va rekonstruksiya qilindi. Natijada 104 ming hektardan ortiq sug'oriladigan yerlarning suv ta'minoti yaxshilandi, kuchli va o'rtacha sho'rangan maydonlar 15,6 ming hektarga kamaydi, sizot suvlar sathi yer yuzasiga yaqin joylashgan maydonlar 28,6 ming hektarga qisqardi, 85 ming hektardan ortiq maydonning meliorativ holatini barqaror saqlashga erishildi. Shunga qaramasdan, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida 93,4 ming hektar sug'oriladigan yerlarning suv ta'minoti past darajada qolmoqda, 109 ming hektar sug'oriladigan maydonlar o'rtacha va kuchli sho'rangan. "Sardoba" suv ombori to'g'onidan suv toshishi oqibatida Sardoba, Oqoltin va Mirzaobod tumanlaridagi aksariyat suv xo'jaligi obektlari, shuningdek, "Markaziy Mirzacho'l" kollektori va unga quyuluvchi kollektorlar jiddiy talafot ko'rdi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, barcha davlatlarda XXI asr boshidan boshlab insoniyat uchun global muammoga aylanib

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi yer fondi(2023 yil 1 yanvar holatiga)/O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya Vazirligi huzuridagi kadastr agentligining davlat kadastrlari palatasi.Toshkent-2023.

borayotgan suv resurslari taqchilligi masalasini hal qilishga, ulardan oqilona foydalanishga e'tibor berib, o'z iqtisodiy ko'rsatkichlari, ichki va tashqi imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda dasturlar tayyorlamoqdalar va dasturlarni ma'lum darajada amalga oshirmoqdalar.

Yerdan foydalanish strategiyasini ishlab chiqishda turli tomonlarning ehtiyojlari va manfaatlarini hisobga olish, jumladan, mahalliy aholi, biznes hamjamiyati, ekologik tashkilotlar va boshqa guruhlar bilan maslahatlashish talab etiladi. Moliyaviy rag'batlantirishlar va subsidiyalar esa davlat va mintaqaviy hokimiyat organlari tomonidan organik dehqonchilik yoki tuproqni saqlash amaliyoti kabi barqaror amaliyotlarni qo'llaydigan qishloq xo'jaligi korxonalariga moliyaviy yordam va subsidiyalar berilishi mumkin. Ta'lim va maslahat sohasida ta'lim dasturlarini o'tkazish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga o'g'itlardan samarali foydalanish, zararkunandalarga qarshi kompleks kurashish va suv resurslaridan barqaror foydalanish kabi barqaror amaliyotlarni qabul qilish bo'yicha maslahat yordamini ko'rsatish zarur. O'simliklarning yangi navlarini yaratishda o'simliklar seleksiyasida olib borilayotgan izlanishlar mahalliy iqlim sharoitiga moslashgan, kasallik va zararkunandalarga chidamli, hosildorligi va sifati yuqori bo'lgan yangi navlarni yaratishga yordam beradi. Biotexnologiyaning qo'llanilishi esa bu sohadagi yutuqlar genetik jihatdan o'zgartirilgan organizmlar (GMO) kabi texnologiyalarni yaratishga imkon beradi, bu esa ekinlarning stress sharoitlariga chidamlilagini oshirishi, ularning ozuqaviy qiymatini yaxshilashi va kimyoviy davolanishga bo'lgan ehtiyojini kamaytirish imkonini beradi. Yer qonunchiligidida yerning huquqiy holatini, undan foydalanish, berish, ijara, berish, sotish va boshqa huquqiy jihatlarini belgilovchi qonun hujjatlarini ishlab chiqish mamlakatimiz uchun juda muhimdir. Bunga yer to'g'risidagi, tuproqni muhofaza qilish, yer solig'i va boshqa qonun hujjatlari kiradi.

Mamlakatimizda yerdan foydalanish tartibi barqaror rivojlanish tamoyillariga muvofiq yerdan foydalanish qonun-qoidalarini, jumladan, qishloq xo'jaligi, sanoat, uy-joy, turizm va shu kabi yerdan foydalanishga qo'yiladigan talablarni belgilash orqali amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda yer resurslari holatini monitoring qilish va baholash ushbu resurslardan barqaror foydalanishni ta'minlash va kelgusidagi faoliyatni samarali rejorashtirishning asosiy bosqichi hisoblanadi. Bunda monitoring va baholashning ba'zi jihatlarini e'tborga olish kerak:

Bazaviy ko'rsatkichlarni belgilash – mamlakatdagi yer resurslarining holatini aks ettiruvchi asosiy ko'rsatkichlarni aniqlash, masalan, foydalaniladigan yer maydoni, tuproq unumdarligi darajasi, tuproqning ifloslanishi, degradatsiyasi darajasi va boshqalar.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan lalmi, yaylov va boshqa yerlarni foydalanishga kiritish maqsadida investitsiyaviy shartnomalar yoki davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida foydalanishga kiritgan, yaroqsiz suv quduqlari, sug'orish nasoslari, irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarini ta'mirlagan yoki ularni yangidan barpo etgan tadbirkorlik subyektlariga davlat tomonidan kafolatlar beriladi. Qishloq xo'jaligi yer uchastkalarini ajratishning shaffof va tezkor tizimini yaratgan holda yanada takomillashtiriladi. Qishloq xo'jaligi yerlarining tuproq unumdarligi, konturi, ularga ekinlarni joylashtirish, hosildorlikni belgilash to'g'risidagi ma'lumotlarni viloyat, tuman hokimliklari va manfaatdor tashkilotlarning rasmiy veb-saytlarida joylashtirish amaliyotini joriy etiladi.

So'nggi yillarda bu sohaga ko'plab grantlar ajratildi: Ekologik toza texnologiyalarni tadqiq etish va ishlab chiqish, shuningdek, ularni qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarda amaliyotga joriy etish uchun grantlar va subsidiyalar berish va boshqalar. Sof texnologiya va innovatsiyalarga sarmoya kiritadigan kompaniyalar uchun soliq imtiyozlarini yaratish va muayyan ekologik maqsadlarga erishish uchun moliyaviy imtiyozlarni taqdim etish davlatning asosiy vazifasi hisoblanadi.

**Xulosa (Conclusion).** O'zbekistonda yer munosabatlarini isloh qilish bilan bog'liq asosiy muammo sifatida yerdan foydalanish va yer bozori aylanmasi bo'yicha hududiy qonunchilik yetarli darajada ishlab chiqilmaganini ta'kidlab o'tishimiz joiz va bunda xulosa qilib muommoning bir qancha yechimlari taklif qilishimiz mumkin:

Ijtimoiy adolat o'rnatish - barcha fuqarolarning yerdan foydalanish imkoniyatini ta'minlash, yer resurslarining monopollashuviga yo'l qo'ymaslik va yerdan foydalanishning an'anaviy shakllarini saqlab qolish muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiy samaradorlikka erishish - islohot qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni rag'batlantirishi, infratuzilmani rivojlantirishi va mehnat unumdarligini oshirishi kerak.

Ekologik barqarorlikni ta'minlash - atrof-muhitni muhofaza qilishni, o'rmonlar va suv resurslarini saqlash, yerdan foydalanishni nazorat qilishni ta'minlash kerak.

Yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, yer munosabatlarini takomillashtirish, muammoni hal qilishda yondashuvning munozarali xarakteri, ularning nazariy va amaliy jihatlarini mamlakat miqyosida yetarli darajada bilmaslik va ularning mintaqada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi ahamiyati aniqlandi. Mamlakat va viloyatlar doirasida yerdan foydalanish sohasida keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilayotganiga qaramay, uni yanada rivojlantirish va hududiy sharoitlarda yerdan foydalanish samaradorligini oshirish, yer munosabatlarini takomillashtirish va yer bozorini shakllantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarur.

### Adabiyotlar ro'yxati (References)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2021-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida 26.02.2021 yildagi PQ-5009-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida 17. 06. 2019 yildagi PF-5742-son farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2022–2026 yillarda Sirdaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 07.05.2022 yildagi 242-son qarori.
4. Qayimov A., Bobojonov A. Yer resurslarini boshqarish va unumli foydalanishda mevali ekinlarning xilma-xil navlarini joylashtirish. – T. 2020.
5. Sodiqov A. M. Territorial agrosanoat komplekslarini tashkil qilish. -T. : O'zbekiston, 1985.
6. Rahmonov Q. R. Yer resurslarini boshqarish. O'quv qo'llanma. T. : TIMI, 2008.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

